



SHIFOKOR

SAMARQAND DAVLAT
TIBBIYOT INSTITUTI
NASHRI

SO'ZI

GAZETA 1938 YILDAN "MEDITSINA FANI UCHUN" NOMI BILAN CHIQA BOSHLAGAN

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 18-mart kuni tibbiyot xodimlari bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Bu tadbirga uzoq tayyorgarlik ko'rib, ham shifokorlar, ham bemorlarning fikrlari so'ralgan edi. Jami 25 mingdan ziyod murojaatlar qabul qilindi. Ularning 8 mingdan ko'pi shaxsiy bo'lib, joyida hal etilmoqda. 17 mingtasi esa tizimga oid masalalardir.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida ularni umumlashtirib, 7 ta muhim yo'nalishni ko'rsatib o'tdi. Birinchi yo'nalish – birlamchi tibbiy xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish, ikkinchisi – tez tibbiy yordamni rivojlantirish, uchinchisi – tibbiyot muassasalarining sharoitini yaxshilash, to'rtinchisi – soha xodimlarini moddiy rag'batlantirish, beshinchisi – shifoxonalarni malakali kadrlar bilan ta'minlash, oltinchisi – jamiyatda sog'lom



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining



**TIBBIYOTDAGI ISLOHOTLAR -
INSON QADRI UCHUN**

mavzusidagi ochiq muloqoti

2022-yil 18-mart

SHAVKAT MIRZIYOYEV: XALQIMIZ SALOMATLIGI HAMMA NARSADAN USTUN VA QADRLI

turmush madaniyatini oshirish, yettinchisi – kasalliklarning oldini olishga qaratilgan.

Prezident bu yo'nalishlarning har biriga atroflicha to'xtalib, yangi tashabbuslarni ilgari surdi.

Masalan, murojaatlarning 55 foizi birlamchi tibbiyot muassasalari haqida bo'lgan. Shu bois, joylarda poliklinikalar tarmog'i yanada kengaytirilishi ta'kidlandi.

Xususan, 2 mingdan ziyod olis mahallalarda tibbiyot punktlari tashkil etiladi. "Qishloq shifokori" dasturi yanada takomillashtirilib, chekka hududlarda faoliyat olib borayotgan shifokorlarning oylik ish haqiga 2 million so'mdan qo'shimcha ustama to'lanadi, uy-joy sotib olishiga ko'maklashiladi. Bunday joylarda uzluksiz uch yil ishlagan shifokor klinik ordinatraga imtihonsiz qabul qilinadi. Nafaqaga chiqqan tajribali shifokorlarga o'z uyida yoki ijara binoda davolashiga ruxsat beriladi.

Ikkinchi yo'nalishga asosan, tez tibbiy yordam sifatini yaxshilash, ularni aholiga yanada yaqinlashtirish uchun alohida dastur qabul qilinadi. Eng avvalo, "103" tez tibbiy yordam xizmati respublika, viloyat, shahar va tuman darajasida yagona boshqaruv tizimiga birlashtiriladi. Tez yordam tuman yoki viloyat chegarasiga qarab emas, balki bemorgacha masofaning yaqinligiga qarab xizmat ko'rsatadi. 2022-2025-yillarda tez tibbiy yordam tizimidagi barcha eskirgan mashinalar zamonaviy avtomobillarga almashtiriladi.

So'nggi besh yilda 2 mingga yaqin tibbiyot muassasasi qurilib, ta'mirlandi. Bu ishlar davom ettirilib, 1 ming 100 ta shifo maskanidagi sharoitlar yaxshilanadi. Birlamchi bo'g'indan boshlab, tibbiyotning barcha sohalarini

raqamlashtirish bo'yicha dastur qabul qilinadi. Ikki yil ichida barcha tibbiyot muassasalari yangi kompyuterlar bilan jihozlanadi. Qog'ozbozlik qisqartirilib, zamonaviy uslub va uskunalarda ishlashga o'tiladi.

To'rtinchi yo'nalishda tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash choralari belgilandi. Joriy yil 1 iyundan tibbiyot xodimlarining oylik maoshi malaka toifasiga qarab 15 foizgacha oshiriladi. Yuqori texnologik murakkab operatsiyalarni bajargan shifokorlarga esa yana 25 foiz miqdorida ustama to'lanadi. Barcha tibbiyot xodimlari uchun dastlabki va davriy kasbiy tibbiy ko'rik bepul o'tkaziladi.

Sohani malakali kadrlar bilan ta'minlash ham dolzarb masalalardan. Tizimdagi shifokorlarning 45 foizi, hamshiralarning esa 40 foizi malaka toifasiga ega emas. Ko'p muassasalarda mutaxassis yetishmaydi.

Shu bois 2022-2023-o'quv yilidan tibbiyot oliygohlariga davlat grantlari asosida qabul kvotalari hududlarda shifokorlarga bo'lgan haqiqiy ehtiyojdan kelib chiqib, maqsadli oshirib boriladi. Tibbiyot oliygohlarida olti oylik ixtisoslashgan kurslar tashkil etilib, oilaviy shifokorlarni hududlarda zarur mutaxassislik bo'yicha maqsadli o'qitish yo'lga qo'yiladi. Barcha tibbiyot kollejlari va texnikumlari oliy ta'lim muassasalariga birlashtiriladi.

Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, inson salomatligi 19 foiz tashqi muhitga, 20 foiz genetik omillarga, 9 foiz sog'liqni saqlashni tashkil etish va 52 foiz turmush tarziga bog'liq. Shu bois oltinchi yo'nalish jamiyatda sog'lom turmush madaniyatini oshirishga qaratilgan.

Joriy yildan boshlab, tibbiy brigada, oilaviy shifokor punkti va poliklinikalar ish samaradorligini baholash bo'yicha reyting

tizimi joriy qilinishi aytiladi. Ijroiy ko'rsatkichlarga erishgan tibbiyot xodimlari mukofotlanadi. "Xalq salomatligi posboni" ko'krak nishoni ta'sis etiladi.

Yettinchi yo'nalishda kasalliklarning oldini olish vazifalari ko'rsatib o'tildi. Shu maqsadda tibbiyot tizimi "mablag'ni bevosita bemorga sarflash" tamoyili asosida moliyalashtirilishi belgilandi. Tibbiy sug'urta tizimi yil yakuniga qadar Sirdaryo viloyatida, kelgusi yillarda barcha hududlarda yo'lga qo'yiladi. Tibbiyot sohasida yagona tibbiy ma'lumotlar bazasi yaratilib, tibbiy-iqtisodiy, statistik va analitik tahlillarni o'tkazish imkonini beradigan milliy tizim joriy etiladi.

Prezidentimiz ma'ruzasida aytilgan har bir vazifa bo'yicha aniq moliyaviy manbalar, texnik yechimlar va amaliy mexanizmlar belgilandi.

– Biz xalqimiz salomatligi uchun har qancha mablag' va kuch-imkoniyat sarflashga tayyormiz. Shaxsan men uchun xalqimiz salomatligi hamma narsadan ustun va qadrlı. Lekin sohaga ajratilayotgan mablag'lardan to'g'ri foydalanilyaptimi? Meni shu savol ko'p o'ylantiradi. Soha rahbarlari har bir so'mning qadriga yetishi, ularning samarasini odamlarimiz o'z hayotida his etishi lozim, – dedi Prezident.

Tizimda korrupsiyaga butunlay chek qo'yish zarurligi ta'kidlandi.

– Shifokorning nafaqat ustidagi xalati, eng avvalo, ko'ngli ham, qo'li ham pok bo'lishi kerak, – dedi davlatimiz rahbari.

Ochiq muloqotda shifokorlar so'zga chiqib, faoliyatida duch kelayotgan muammolar, taklif va mulohazalarini aytdi. Prezidentimiz ularni mutaxassislar ishtirokida muhokama qilib, mutasaddilarga ko'rsatmalar berdi.

Manba: uza.uz

Toshkent shahridagi "Humo Arena" majmuasida 21-mart kuni Navro'z bayrami shodiyonasi bo'lib o'tdi. Tantanali tadbirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirok etib, xalqimizni bayram bilan tabrikladi.

Navro'zda tabiatda ro'y beradigan uyg'onish va yangilanish yurtimizdagi o'zgarishlarga uyg'un. So'nggi besh yilda Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalar rivojlantirildi, hududlar qiyofasi yangilandi.

Bunday ishlarni davom ettirish maqsadida joriy yilda Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi hamda "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" dasturi qabul qilindi.

- Mehnatkash va olijanob xalqimiz



NAVRO'Z HAMMAMIZGA INSONIYLIK, MEHR-OQIBAT VA BAG'RIKENGLIK FANIDAN SABOQ BERADI

milliy rivojlanishning yangi davriga ulug'vor maqsad va amaliy ishlar bilan kirib bormoqda, - dedi davlat rahbari.

Buning tasdig'ini har bir oila, har bir mahalla, qishloq va ovullar, shaharlarimiz misolida yaqqol ko'rish mumkin. Yurtimizda yuzlab zamonaviy korxonalar, yo'l va kommunikatsiya tarmoqlari, uy-joylar, yangi bog'cha va maktablar, oliygohlar hamda madaniyat maskanlari, tibbiyot va sport inshootlari barpo etilmoqda.

Barcha hududlarda "Yangi O'zbekiston" bog'lari, "Yangi O'zbekiston" massivlari bunyod qilinmoqda. "Obod mahalla" va "Obod qishloq" dasturlari qatorida, butun mamlakatimiz bo'ylab "Yashil makon" umummilliy loyihasi amalga oshirilmoqda. Shu kunlarda odamlar hasharlar qilib, ko'chat va gullar ekib, yangi bog'lar, sayilgohlar yaratmoqda. Aytish mumkinki, ayni paytda butun mamlakatimiz bayram kayfiyati va bunyodkorlik ruhi bilan yashamoqda.

Prezident o'z tabrigida Navro'zning mohiyati, mamlakatimizdagi tinchlik-osoyishtalikning qadri haqida alohida to'xtaldi.

- Navro'zi olam bizni tabiat farzandi bo'lib, Vatan tuprog'ini, ona zamindagi har bir giyohni, ko'zimizga to'tiy qilib yashashga o'rgatadi. Navro'z hammamizga insoniylik, mehr-oqibat va bag'rikenglik fanidan saboq beradi.

Shu fayzli lahzalarda barchamiz tinchlik va osoyishtalik naqadar bebaho ne'mat ekanini, uning qadr-qimmatini va ahamiyatini yaxshi anglaymiz. Bugungi murakkab dunyoda xalqimiz hayotini, farzandlarimiz kelajagini, musaffo osmonimizni asrab-avaylash uchun har birimiz mas'ul va javobgar ekanimizni yanada chuqurroq his etamiz, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari bayramda ishtirok etayotgan diplomatik korpus vakillarini, chet ellardagi vatandoshlarimizni ham samimiy tabrikladi.

Shuningdek, 22-mart kuni nishonlanadigan Mahalla kuni munosabati bilan ushbu tizim faollari, oqsoqollar, hokim yordamchilari va yoshlar yetakchilari qutlandi.

Bayram tadbiri katta konsert dasturi bilan davom etdi.

Ushbu tantanadan so'ng, Prezident Shavkat Mirziyoyev Navro'z saylida ishtirok etdi, milliy madaniyat markazlari, folklor-etnografik jamoalar chiqishlarini kuzatdi.

Navro'z mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillarining sevimli bayramiga aylangan. Sayilda ana shu ahillik, yurtimizdagi millatlararo do'stlik yaqqol namoyon bo'ldi.

Prezidentimiz bayramga kelgan odamlar bilan suhbatlashib, ularni tabrikladi.

O'z muxbirimiz

«BAHOR YAQINMIKAN YORONLAR»

Yana qushlar sayraydi nogoh,
Qorlar erir yerning taftida.
Suvlar toshib tuladi anhor,
Aza ochar qishning makriga.
Bahor yaqinmikan yoronlar.

Erinchoqday yozadi quloch,
Daraxtlarning erka shoxlari.
Halginchakda uchamiz qachon
El yigitlar boshlang ko'pkari.
Bahor yaqinmikan yoronlar.

Uyg'onadi esnab chuchmomo,
Binafsha rang gilamin yozib.
Samolardan yog'adi havo,
Zarg'aldoqlar lablarin yorib.
Bahor yaqinmikan yoronlar.

Ko'payishar qushlar chug'urlab,
Nog'oralar urilar tongda.
Boychechaklar ketar yumalab,
Bobotog'ning etaklariga.
Bahor yaqinmikan yoronlar.

«UKSIMA BAHORGA QAYTAMIZ»

Umrimni yo'linga tushaysan,
Ko'ksimda hungraydi yaproqlar.
Kechagi mezonlar titarlar,
Poyondozi kunglimning iplarini.
Uksima bahorga qaytamiz.

Siltaydi novdalar boshimni,
Daraxtdek chayqalar uylarim.
Taraydi chaqmoqlar qoshini,
Yomg'irga aylanan yillarim.
Uksima bahorga qaytamiz.

Qushlarga uxshaysan parvozsiz,
Yillarni bahorga eltasan.
Ulkanida shoir yo'q she'rlarsiz,
Kuylarda tarannum etasan.
Uksima bahorga qaytamiz.

**Zebo Xolmatova,
oilaviy shifokor
Past Darg'om tumani.**

8-MART — XALQARO XOTIN-QIZLAR BAYRAMI

Institut tomonidan 8-mart — Xotin-qizlar kuniga bag'ishlab bayram dasturi tashkil etildi. Bayramda oliygohning professor o'qituvchilari va xodimlari ishtirok etishdi.

Bayram dasturini institut rektori J. Rizayev o'z tabrik so'zi bilan ochib berib, institutdagi barcha maftunkor, ziyoli ayol professor o'qituvchilar hamda xodimlarni shuningdek barcha xotin-qizlarni kirib kelayotgan bayram munosabati bilan chin dildan qutladi. Ularga bahor fasli singari go'zal, nafis va latofatli bo'lib yurishlarini va sog'lik, ishlarida omadlar tiladi.

Bir necha yillardan buyon samarali mehnat qilib, o'zining ko'p qirrali faoliyati bilan namuna bo'lib kelayotgan institut ma'muriyati, klinikalari va akademik litseyning ayol xodimlari faxriy yorliqlar va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Tadbirda konsert dasturi tashkil qilinib, ko'ngilochar qo'shiqlar kuylandi. Iqtidorli talabalar tomonidan bir qancha badiiy chiqishlar namoyish etildi.



Institut 1-son klinikasida ham bayram munosabati bilan tadbir uyushtirilib, barcha ayol xodimlar bayram bilan tabriklendi. Ularga esdalik sovg'alari ulashildi.

SAMARQANDDA NAVRO'ZI OLAM KENG NISHONLANDI



Samarqand shahrining bir qator maskanlarida, xususan Alisher Navoiy nomidagi istirohat bog'ida Navro'z bayrami sayllari bo'lib o'tdi.

Viloyat va shahar ahli turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, kuy-qo'shiq va raqslar, milliy qadriyatlar aks etgan o'yinlarni tomosha qilib bahramand bo'ldilar. Yangilanish, yosharish bayrami shukhi butun Samarqandni qurshab oldi. Samarqand davlat tibbiyot instituti ham bahoriy yangi yilni ko'tarinki kayfiyatda kutib oldi.

Barcha yurtdoshlarimizni kirib kelayotgan yangi kun bilan tabriklash va bayramga o'zgacha shukuh bag'ishlash maqsadida institut jamoasi ham erta tongdan istirohat bog'ida tashkil etilgan saylga tashrif buyurdi.



Institut professor-o'qituvchilari hamda talabalari tomonidan tashkil etilgan bayramona dasturxon, turlik o'yinlar, milliy qadriyatlarimiz aks etgan chiqishlar barcha yig'ilganlarga manzur bo'ldi. Barcha bayram ishtirokchilarini institut rektori professor Jasur Rizayev tabrikladi.

Ko'tarinki kayfiyatni ta'minlash maqsadida bayram tadbirida shaxmat va milliy kurash sport turlari bo'yicha kichik musobaqalar ham uyushtirildi. Talabalar tomonidan tarixiy va milliy qadriyatlarimiz ramzi bo'lgan milliy liboslar ko'rgazmasi hamda konsert dasturi o'tkazildi. Institutni yaxshi an'anasiga ko'ra barcha bayram tadbir ishtirokchilariga bayram oshi tarqatildi.

SUMALAK SAYLI O'TKAZILDI



Navro'z bayrami arafasida institutda ham bayram tadbirlari uyushtirildi.

Jumladan institutning 1-son va 3-son TTJlarda Sumalak sayli tashki etildi. Navro'z bayramiga bag'ishlangan saylda professor-o'qituvchilar, barcha fakultetlar dekanlari, tyutorlar, talabalar hamda butun institut jamoasi ishtirok etdi.

Sumalak sayllarini institut rektori J. Rizayev o'z so'zlari bilan ochib berdi hamda yig'ilganlarni yangilanish, yosharish bayrami — Navro'z bilan qutladi. Barchaga ishlari, o'qishlarida omad va zafarlar tiladi.

Talabalar tomonidan tayyorlangan raqs, kuy-qo'shiqlar, sahna



ko'rinishlari hamda turli o'yinlar bayram sayliga yanada zavq bag'ishlab, sumalak saylini ko'tarinki kayfiyatda o'tishini ta'minladi.

Shuningdek, bayram munosabati bilan talabalar yotoqxonalarida osh damlab, tarqatildi.

Bundan tashqari tadbirlar doirasida talabalar o'rtasida "Zakovat" o'yinlari, shaxmat bo'yicha bellashuvlar hamda futbol musobaqalari tashkil etildi.

Kirib kelgan Navro'z bayrami tibbiyot institutida yuqori saviyada nishonlandi.

O'z muxbirimiz

REKTORIMIZGA «FAXRIY PROFESSOR» UNVONI BERILDI



S. Asfendiyarov nomidagi Qozoq milliy tibbiyot universiteti bilan institutimiz o'rtasida onlayn ravishda uchrashuv bo'lib o'tdi. Uchrashuvda QozMTU hamda SamDTning prorektorlari, dekanlari hamda professor-o'qituvchilari ishtirok etishdi.

Uchrashuv davomida tibbiyot sohasidagi muammolar, erishilgan yutuqlar haqida, shuningdek, tibbiyot universiteti o'rtasida hamkorlikda qilinishi lozim bo'lgan ishlar xususida muzokaralar olib borildi. Ayniqsa, tibbiyot sohasiga, shuningdek tibbiy kadrlarga ehtiyoj har qachongidanda yuqori bo'lgan hozirgi vaziyatda ikki davlat tibbiyot muassasalarining o'zaro hamkorlikdagi faoliyati yuqori ahamiyat kasb etishi aytib o'tildi.

Uchrashuv so'nggida S. Asfendiyarov nomidagi QozMTU rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor Nurgojin Talgat ilmiy kengash qarorini o'qib eshittirdi va institut rektori, tibbiyot fanlari doktori, professor Jasur Rizayevga S. Asfendiyarov nomidagi QozMTUning «Faxriy Professori» unvonini topshirdi.

Professor Jasur Rizayev o'zining so'zida Universitet rahbariyati va butun jamoasiga minnatdorchilik bildirib, har tomonlama hamkorlikni rivojlantirishga doimo tayyor ekanligini bildirdi.

Hamkorlik masalalari kelgusida ikki OTM o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishiga ishonib qolamiz.

BITIRUVCHILAR BILAN UCHRASHUV

28 – fevral kuni institut katta majlislar zalida rektor J. Rizayev bilan Davolash ishi, Pediatriya, Stomatologiya, Tibbiy pedagogika va Tibbiy profilaktika fakultetlari bilan bitiruvchi kurs talabalari o'rtasida ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda yoshlarning ta'lim olishi, ularning yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishlari uchun amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Zero, yoshlar — vatanning ertangi kun egalari.

Muloqot davomida bitiruvchi kurs talabalarining ta'lim jarayonlari, ularning samaradorligi, bo'lajak shifokorlarni keyingi rejalari haqida so'z yuritildi.

Shuning bilan birga Yakuniy davlat attestatsiyasi haqida ham ma'lumot berilib, uning ahamiyati ta'kidlab o'tildi. Institut rektori bilan ochiq muloqot tarzida kechgan yig'ilishda talabalarining oliy ta'limdan keyingi mehnat faoliyatlari va ishga joylashish jarayonlari, yaratilgan



imkoniyatlar va imtiyozlar haqida ham alohida ma'lumotlar berib o'tildi hamda qo'llab quvvatlashlar bo'lishi haqida eslatib o'tildi. Ochiq muloqot erkin dialog shaklida o'tdi.

REKTOR VA TALABALAR UCHRASHUVI



Mamlakatimizda yoshlarga bo'lgan e'tibor, o'sib kelayotgan barkamol avlodga bo'lgan g'amxo'rlik davlat siyosati darajasiga ko'tarilgani bilan ham juda ahamiyatlidir.

Yoshlarga qaratilgan e'tibor, ularni qo'llab – quvvatlash darajasi kun sayin ortib borayotgani o'g'il-qizlar uchun ko'plab imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda. Zero yoshlar vatan kelajagi, ertangi kunning buniyodkorlaridir.

2022 yil 16-mart kuni institut rektori, professor Jasur Rizayev hamda Davolash ishi fakultetining 1-bosqichida tahsil olayotgan talaba yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Uchrashuvda institut rektori fakultet miqyosida olib borilayotgan

ishlar, professor-o'qituvchilar va talaba-yoshlar uchun yaratilgan sharoitlarga to'xtalib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar xususida takliflar berdi:

- Tibbiyot sohasida raqobatdosh kadrlarni yaratish asosiy maqsad ekanligi.
- Talaba yoshlarning ilmiy ishlar bilan shug'ullanishlariga ko'proq vaqt ajratishlari zarur ekanligi.
- Mehnat bozorida institut bitiruvchi talabalar o'z o'rinlariga ega bolishlari lozimligi
- Talabalar professor o'qituvchilar bilan doimiy savol javob, muloqot tarzida ishlab, o'z bilim va ko'nikmalarini mustahkamlab borishlari kerakligi kabi bir qator masalalar aytib o'tildi.

Ochiq muloqot ko'rinishini olgan tadbirda talabalar oliygoh rahbariyatidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olib, o'zlarining takliflarini ham bildirib o'tdilar.

Yoshlar yilida, yoshlar bilan ishlash mexanizmi yaratilganligi, shu o'rinda talaba-yoshlarga katta imkoniyatlar yaratilayotganligi quvonarli hol ekanligini ta'kidlandi.

Ma'lumot uchun hozirda institutda jami 1815 nafar 1-bosqich talabalar tahsil olib kelmoqda. Xorijlik talabalar va qo'shma ta'lim asosida qabul qilingan talabalar ham shular jumlasidandir.

S. Erboyev,
yoshlar bilan ishlash,
ma'naviyat va ma'rifat bo'limi uslubchisi

Otorinolarologiyada diagnostika va davolashning zamonaviy texnologiyalari

2022 yil 18-mart kuni institutda "Otorinolarologiyada diagnostika va davolashning zamonaviy texnologiyalari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Xalqaro ilmiy forumda Italiya, Ozarbayjon, Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Tojikiston va O'zbekistonning yetakchi tibbiyot oliy o'quv yurtlarining 300 dan ortiq vakillari ishtirok etdilar.

Xalqaro anjumaning tantanali ochilishida institut rektori prof. J. Rizayev, Qozog'istonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik R. Tulebaev, Siena Universitetining otorinolarologiyaga ixtisoslashuv maktabi direktori, Italiya Rinologlar assotsiatsiyasining faxriy a'zosi prof. Desiderio Passali, Rossiya Federatsiyasi Federal Tibbiyot-biologiya agentligi Otorinolarologiya milliy tibbiy tadqiqot markazi direktorining xalqaro faoliyat bo'yicha o'rinbosari prof. Diab Hassan Mohamad Ali, Rossiya davlat ijtimoiy universiteti rektori v.b., Rossiya Badiiy akademiyasi akademigi prof. A. Xazin, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti otorinolarologiya va stomatologiya kafedrasini mudiri prof. Sh. Amonov konferensiya ishtirokchilariga o'zlarining qutlov so'zlarini yo'lladilar.

Anjumaning yalpi majlisida otorinolarologiyada diagnostika va davolash sohasidagi so'nggi yutuqlarga oid ma'ruzalar tinglandi. So'ngra, xalqaro forum ishi sho'ba yig'ilishlarida davom etdi.

Konferensiya ishida quloq va vestibulyar apparatlar patologiyalarini



diagnostika qilish va davolashning zamonaviy usullari, burun va paranazal sinuslar patologiyalari, halqum kasalliklari tashxislar va davolash istiqbollari, shuningdek yosh tadqiqotchilar-otorinologlarning yutuqlari keng muhokama qilindi.

Institutda o'tkazilgan "Otorinolarologiyada diagnostika va davolashning zamonaviy texnologiyalari" Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi amaliy tibbiyot yo'nalishlarida kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yosh olimlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatga keng jalb etish hamda respublika universitetlarini dunyoning yetakchi tibbiyot universitetlari va ilmiy markazlari bilan aloqalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

MAHORAT DARSLARI



10-mart kuni institutda Heart Team assotsiatsiyasi hamkorligida magistratura rezidentlari, klinik ordinatolar va talabalar uchun "Yurak gemodinamikasi va yurak sikli" mavzusida navbatdagi mahorat darslari o'tkazildi.

Mashg'ulotlardan so'ng barcha ishtirokchilar mahorat darslari uchun ma'ruzachilar hamda Heart Team assotsiatsiyasiga o'z minnatdorchiliklarini bildirdilar.

Ma'ruzada interfaol usullar hamda tarqatma materiallardan foydalanildi. Dastlab yurakda normal qon aylanishi, uning ko'rsatkichlari, normal EKG va ExoKG haqida to'liq ma'lumot berildi. Yurakning og'ir kasalliklarida kuzatiladigan o'zgarishlari o'rganilib chiqildi va bilimlarni mustahkamlash maqsadida test sinovlari o'tkazildi.

Amaliyot qismida esa ma'ruzachilar tomonidan yurak kasalliklarida ExoKGda bo'ladigan o'zgarishlar to'liq ko'rsatilib berildi. Mahorat darslari savol-javoblar va bahs-munozalar tarzida kechdi.

Kattaqo'rg'onda "Uch-avlod uchrashuvi" doirasida joylarda tibbiy ko'rik o'tkazildi

2022 yil 12-mart kuni Kattaqo'rg'on shahri "Ingichka" qishlog'ida "Uch avlod uchrashuvi" bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Samarqand viloyati hokimi Erkinjon Turdimov, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vaziri Tursinxon Xudoybergenovlar ishtirok etdi. Shuningdek, institutning davolash ishlari bo'yicha prorektori, 1-klinika bosh shifokori prof. N. Abdullaeva boshchiligidagi ishchi guruh ham professor-o'qituvchilar bilan birgalikda aholini chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazish maqsadida Kattaqo'rg'on shahriga tashrif buyurdilar.

Bayram tadbiri va tibbiy ko'rik 12-umumta'lim maktab, shuningdek, nogironlar va keksalar uyida o'tkazildi. Qishloqda yashovchi fuqarolar nevropatolog, jarroh, pediatr, akusher-ginekolog, otorinolarolog, oftalmolog, terapevt, onkolog va endokrinologlardan malakali maslahatlar olishga muvaffaq bo'ldilar.



Aholini tibbiy ko'rikdan o'tkazish bilan bir vaqtda yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish, sog'lom turmush tarzi va to'g'ri ovqatlanish qoidalariga rioya qilish, jismoniy faollikni oshirishga bag'ishlangan chora-tadbirlar yuzasidan suhbat o'tkazildi. Institut ishchi guruhi mutaxassislari tomonidan yig'ilish ishtirokchilariga sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi bukletlar va varaqalar ko'rinishidagi tarqatma materiallar berildi.

Institut matbuot xizmati



“BALLI QIZLAR” TANLOVI G‘OLIBLARI ANIQLANDI

15-mart kuni institutning fakultetlari va akademik litsey qizlari o‘rtasida “Balli qizlar” ko‘rik tanlovi bo‘lib o‘tdi.

Tanlovni institut prorektori E. Tangirov tabrik so‘zi bilan ochib berib, barcha ishtirokchilarga omad va zafarlar tiladi. Ishtirokchilar 4 ta shart bo‘yicha bellashdilar:

1. Tanishtirish (o‘zlari va ta‘lim olayotgan fakultetni);
2. Sahna ko‘rinishi (shifokor va bemorlar o‘rtasida uchrab turadigan holatlar aks etgan biror bir voqea haqida sahna);
3. Alla aytish mahorati (bolaligida onalaridan eshitgan eng go‘zal

alla);

4. Erkin ijodiy-badiiy chiqish (sahna ko‘rinishi, she‘rlar, qo‘shiqlar va raqslar).

Bundan tashqari tadbir davomida institutning iqtidorli, san‘atsevar talabalari tomonidan tayyorlangan qo‘shiqlar, raqslar namoyish etildi.

Qiziqarli va murossasiz o‘tgan bellashuvda pediatriya fakulteti 3-bosqich talabasi Xazratkulova Muxlisa I-o‘ringa munosib deb topildi. Tanlovda ishtirok etgan barcha qizlar diplomlar hamda esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

SPORT O‘YINLARI TASHKIL ETILDI

8 - Mart “Xalqaro xotin qizlar kuni” munosabati bilan institutda bir qancha tadbirlar tashkil etildi.

Institut yangi o‘quv binosi hovlisida professor – o‘qituvchilar va institut xodimlari o‘rtasida shaxmat, shashka, stol tennisi va armrestling sport turlari bo‘yicha musobaqalar o‘tkazildi. Musobaqalar bayramona tarzda, ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lib o‘tdi.

Shuningdek, tadbir doirasida ko‘ngilochar konsert dasturi tashkil etilib, musobaqalarda faol bo‘lgan xotin-qizlarga esdalik sovg‘alari ulashildi.

O‘z muxbirimiz



“BO’LAJAK TIBBIYOT XODIMLARI” UCHRASHUVI

Tibbiyot - zamon va makondan qat’iy nazar barcha vaqtlarda va manzillarda eng muhim yo’nalishlardan biridir.

2022-yil 12-mart kuni Sirdaryo viloyatida tibbiyot sohasidagi o’tkazilgan “Hokim va bo’lajak tibbiyot xodimlari” uchrashuvining o’tkazilishi ushbu sohaning naqadar muhim ekanligining isbotidir.

Uchrashuvning asl maqsadi, kadrlarga bo’lgan talabni qondirish hamda bo’lajak tibbiyot xodimlarini o’z hududlarida bandligini ta’minlashdan iborat edi. 2022-yil 12-mart Sirdaryo viloyat hokimi, G’ofurjon Mirzaev tashabbusi bilan Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Samarqand davlat tibbiyot institutlarida bakalavr, magistratura, klinik ordinatura yo’nalishlari bo’yicha tahsil olayotgan Sirdaryolik yoshlar uchun Guliston shahridagi «Yoshlar markazi»da «Hokim va yoshlar» uchrashuv tashkil etildi.

Yig’ilishda Samarqand davlat tibbiyot institutidan marketing va talabalar amaliyoti bo’limi boshlig’i B. Yo’ldoshev boshchiligida sirdaryolik 12 nafar institutning barcha bakalavr, magistr va klinik ordinatura yo’nalishlari bitiruvchilari ishtirok etishdi.

Sirdaryo viloyat hokimi, Sirdaryoni drayver sohalaridan biri hisoblangan, sog’liqni saqlash tizimi, uning ertangi istiqboli, chekka qishloq aholisi uchun ko’rsatilayotgan tibbiy xizmat sifati, viloyatni tibbiyot kadrlarga bo’lgan ehtiyoji, eng chekka hududlarda ishlash istagida bo’lgan, bo’lg’usi tibbiyot xodimlar uchun yaratilib beriladigan



shart-sharoit va qo’shimcha imkoniyatlar to’g’risida gapirib berdi.

Bu esa, Toshkent va Samarqand tibbiyot oliygohlaridan tashrif buyurgan, sirdaryolik bo’lg’usi shifokorlarda katta taassurot qoldirdi. Shundan so’ng, ular Sirdaryo viloyat sog’liqni saqlash boshqarmasi, tibbiyot muassasalarida, ishlash istagida bo’lgan bitiruvchi talabalar o’rtasida uch tomonlama shartnoma tuzilib, o’quv yili so’ngida, ish faoliyatini Sirdaryo viloyat sog’liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalarida boshlashga kelishib olishdi.

MAKTAB INTERNATIDA UCHRASHUV

Institut Stomatologiya fakulteti dekani Alisher Axmedov boshchiligida dekan o’rinbosarlari professor — o’quvchilar, tyutorlar va fakultet talaba yoshlari Samarqand SOS Bolalar Mahallasiga tashrif buyurishdi.

Tashrif davomida 9 ta Bolalar internati tarbiyalanuvchilariga sog’lom turmush tarzini targ’ib qilish hamda ularning bilim va ko’nikmalarini oshirishga qaratilgan targ’ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirdilar.

Xususan, “Siz bilasizmi?” shiori ostida turli qiziqarli savol-javoblar o’tqazilib, faktik ma’lumotlar orqali tadbir qatnashchilariga tushuntirishlar berildi.

Tadbir doirasida maktab tarbiyalanuvchilari o’rtasida Zakovat o’yinlari tashkil etilib, unda “Zukkolar”, “Chaqqonlar”, “Epchillar” jamoalari ishtirok etdi. Beshta shart asosida bo’lib o’tgan bahslarda “Epchillar” jamoasi g’oliblikni qo’lga kiritdi. G’olib va sovrindorlarga esdalik sovg’alari ulashildi.



“ZAKOVAT” O’YINLARI

Institut 1-son Davolash fakulteti talabalarining bo’sh vaqtini mazmunli o’tkazish maqsadida “Zakovat” intellektual o’yinlari tashkil etildi. 1-sonli TTJ da o’yinlarning 1-turiga start berildi. Tadbir davomida talabalarning kayfiyatini ko’taruvchi musiqiy chiqishlar va qiziqarli savollar namoyish etildi.

“Zakovat” intellektual o’yinida ishtirok etgan jamoalar esdalik sovg’alari bilan taqdirlandi. O’yinlarning keyingi turi 10 kundan so’ng o’tkazilishi rejalashtirilgan. Kelgusi o’yinlarda barcha talabalarimizni faollikka chorlab qolamiz.

Institut matbuot xizmati



E'lonlar

XALQARO SERTIFIKAT TOPSHIRILDI

Institut "O'zbek tili va adabiyoti, rus tili bilan" kafedrasida o'qituvchilari Sh. Djumaldinova va F. Zayniyeva TPKE C1 xalqaro tan olingan sertifikatiga ega bo'ldilar.

A. Avloniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti, Xalq ta'limi vazirligi hamda Gersen nomidagi Rossiya Davlat pedagogika Universiteti hamkorligida amalga oshirilayotgan "Klass" loyihasi doirasida rus tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha 2021-yil noyabr oyida test sinovlari o'tkazilgan edi. Mazkur test sinovlarini muvaffaqiyatli topshirgan

talabgorlar uchun TPKE C1 sertifikatlari topshirildi.

Bu imtihonning rus tilida "TPKE abreviaturasi Test по русскому языку как иностранному" ingliz tilida "Test of Russian as a Foreign Language (TORFL)" xalqaro darajada rus tilini bilishni baholovchi davlat imtihoni bo'lib, 1995-yilda yaratilgan.

Har bir darajaning testi 5 ta subtestlardan iborat: leksika, grammatika, o'qish, audio tinglash, yozish, so'zlashuv. Testlarning davomiyliqi darajasidan kelib chiqqan holda minimum 3,5 soat bo'ladi.

OCHIQ MA'RUZA E'LONLARI

SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida 2022-yil 24 aprel kuni fakultet pediatriya fanidan soat 11:10da Pediatriya fakulteti 316-320 guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: Bronxoektatik kasallik. Etiopatogenezi, kasallikka olib keluvchi omillar, tasnifi, kasallikni og'irligiga, kechishiga bog'liq holda klinikasi, asoratlari. Tashxisot me'zonlari. Davolash tamoyillari.

Ma'ruzachi: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida mudiri dotsent, t.f.d. Muxammadiyeva L.A.

Manzil: SamDTI 3-Pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida ma'ruza zali

Taklif qilinganlar: Pediatriya fakulteti 316-320-guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrilar, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.



Samarqand davlat tibbiyot instituti tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasida 2022-yil 12-aprel kuni Fitoterapiya fanidan soat 9:30da kafedraning ma'ruzalar zalida Xalq tabobati fakultetining 201, 202, 203-guruh talabalari uchun ochiq ma'ruza bo'lib o'tadi.

Mavzu: "Preparati lekarstvennix rasteniy, okazivayushie deystvie na perifericheskuyu nervnuyu sistemu. Preparati lekarstvennix rasteniy, ix farmakodinamika i ispol'zovanie v praktike"

Ma'ruzachi: t.f.n., dosent Z.F. Mavlyanova

Manzil: SamDTI Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasining ma'ruzalar zali.

Taklif qilinganlar: Xalq tabobati fakultetining 201, 202, 203-guruh talabalari, klinik ordinatorlar, magistrilar, bo'lim vrachlari, o'quv bo'limi va barcha qiziquvchilar.



Samarqand davlat tibbiyot instituti Tibbiy pedagogika fakulteti 3-ichki kasalliklar kafedrasida 2022 yil 29 aprel soat 11:10 da kafedraning majlislar zalida davolash fakulteti studentlariga t. f. n., S.O.Juraevning «Surunkali gepatitlar. Jigar ssirozi. Kasallikning etiologiyasi, tasnifi, klinikasi. Tekshirish uslublarini o'rganish. Davolash prinsipi va profilaktikasi»

mavzusida ochiq ma'ruzasi bo'lib o'tadi.

Barcha tinglovchilar, magistrilar va klinik ordinatorlar taklif etiladi.

SamDTI quyidagi

lavozimlarga tanlov e'lon qiladi

PEDIATRIYA FAKULTETI

Klinik laboratoriya diagnostikasi kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Klinik laboratoriya diagnostikasi kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 1 o'rin;

3-son pediatriya va tibbiy genetika kafedrasida, stajer-assistent lavozimiga - 2 o'rin;

Nurli diagnostika va terapiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

2-SON DAVOLASH FAKULTETI

Patologik anatomiya seksion-biopsiya kursi bilan kafedrasida, dotsent lavozimiga - 1 o'rin;

STOMATOLOGIYA FAKULTETI

Yuz-jag' xirurgiyasi kafedrasida, kafedra mudiri lavozimiga - 1 ta o'rin;

Og'iz bushlig'i jarroxliligi va dental implantologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 ta o'rin;

FARMATSIYA FAKULTETI

Farmakologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 2 o'rin;

TIBBIY PROFILAKTIKA, JAMOAT SALOMATLIGI VA TIBBIY BIOLOGIYA FAKULTETI

Patologik fiziologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 ta o'rin;

Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 ta o'rin;

TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETI

Psixiatriya, tibbiy psixologiya va narkologiya kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Tillar kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Tibbiy reabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasida, assistent lavozimiga - 1 o'rin;

Ilmiy kotib U.U.Ochilov

Tahririyat raisi:

J.A. RIZAYEV

Bosh muharrir:

E.S. TANGIROV

Tahrir hay'ati:

G'U. LUTFULLAEV,

S.A. KARABAEV,

S.E. MAMARADJABOV,

A.A. AXMEDOV,

J.F. KADIROV.

SHIFOKOR SO'ZI

Nashr uchun mas'ul:

S. Halimov

Operator va sahifalovchi:

A. Amonov

Fotomuxbir:

O. AXMEDOV

Gazeta Samarqand viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 18.01.2007 y. 09-33 raqami bilan ro'yxatga olingan.

INDEKS: 5539

MANZIL: Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi 18-uy.

Tel: (99866) 233-09-76 Faks: (99866) 233-71-75

e-mail: shifokor@samti.uz, sammi@sammi.uz

Gazeta SamDTI bosmaxonasida, ofset usulida chop etiladi.

Nashrga ruxsat berildi: 2022 yil, 30-mart Adadi 200 nusxa. Buyurtma: 52